

BOBORAHIM MASHRAB MA'NAVIY MEROSI VA MANBALAR TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-16-20>

Masharipova Gularam Kamilovna

Alfraganus university professori,

falsafa fanlari doktori,

T: 90-930-95-82,

ORSID: 0009-0007-0788-2359

e-mail: masharipova.gularam2006@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Boborahim Mashrabning ma'naviy merosi va uning manbalarini tahlil qiladi. Maqolada Mashrab ijodining falsafiy, diniy va axloqiy jihatlari o'rganilib, uning asarlari orqali o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini va tarbiyaviy an'analari namoyon bo'lishi ko'rsatiladi. Shuningdek, maqolada Mashrab ijodining manbalari, jumladan klassik sufiyona adabiyot va xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Boborahim Mashrab, ma'naviy meros, manbalar, sufiyona adabiyot, o'zbek xalq an'analari.

Аннотация. В данной статье анализируется духовное наследие Боборахима Машраба и его источники. Исследуются философские, религиозные и нравственные аспекты его творчества, а также показывается, как через его произведения проявляются духовные ценности и воспитательные традиции узбекского народа. Кроме того, рассматриваются источники творчества Машраба, включая классическую суфийскую литературу и устное народное творчество.

Ключевые слова: Боборахим Машраб, духовное наследие, источники, суфийская литература, традиции узбекского народа.

Abstract. This article examines the spiritual heritage of Boborahim Mashrab and its sources. The philosophical, religious, and moral aspects of Mashrab's works are analyzed, highlighting how his writings reflect the spiritual values and educational traditions of the Uzbek people. The article also investigates the sources of Mashrab's creativity, including classical Sufi literature and oral folk traditions.

Keywords: Boborahim Mashrab, spiritual heritage, sources, Sufi literature, Uzbek folk traditions.

O'zbek klassik adabiyoti tarixida o'ziga xos katta o'rin tutgan, otashin hajviy she'rlari va o'ynoqi g'azallari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan, nomi butun O'rta Osiyo va undan uzoqlarga mashhur bo'lib ketgan ajoyib shoirlarimizdan biri Boborahim Mashrabdir. Mashrab ijodi allaqachonlardan buyon ijtimoiy ahamiyat kasb

etgan bo‘lib, uning nomi xalqimiz hayoti va tarixida mutaassiblikka, islom aqidalariga qarshi kurashning bayrog‘i bo‘lib keldi [1].

G‘afur G‘ulom ilmiy tadqiqotlarida: «...Bu masala adabiyot tarixchilarimizning, ilmiy-tekshiruv institutlarimizdagi bir talay ilmiy xodimlarning tadqiqot ishlarida juda chigal muammo bo‘lib keldi» [1], – deb o‘z davrida ham tashvishlanib yozgan edi. Bugungi kunda ham ba‘zi-ba‘zida Mashrab ijodining u yoki bu jihatlarini tahlil etuvchilar noaniq, mavhum fikrlarni o‘rtaga tashlab, mashrab ijodini tor, chigal holda tahlil etib, ommani chalg‘itmoqdalar. Adabiyotshunos olim, mashrab targ‘ibotchilaridan biri A.Abdug‘afurovning e‘tirof etishicha, «Boborahim Mashrab hali hayot vaqtidayoq otashin g‘azallar muallifi sifatida ham hozirjavob, to‘g‘riso‘z, zukko, burrotil, bir so‘z bilan aytganda, etuk tabiatli shaxs, munofiqlik va firibgarlik, pastkashlik hamda zo‘ravonlik bilan aslo kelisha olmaydigan, o‘zgalar nuqsonini hech bir tortinmasdan dadil ochib tashlovchi botir yurak kishi sifatida ham xalq orasida mashhur bo‘lgan. Chindan ham o‘inchi oilasi farzandi Mashrab doimo xalq bilan birga bo‘ldi, qishloq dehqonlari va shaharning ezilgan tabaqasi ichida hayot kechirdi, ular orasida o‘z tengdosh va fikrdoshlarini ko‘rdi» [2].

Akademik Izzat Sulton 1936 yilda yozgan «Asl Mashrab» nomli maqolasida xuddi G‘afur G‘ulomga xos fikr yuritib, Mashrabni Sharqda, xususan, O‘rta Osiyoda mashhur odam, uni qozoq, o‘zbek, turkman ham yaxshi biladi, uni Yevropa olimlari o‘rganganligini, hatto uning asarlari rus tiliga tarjima qilinganligini ta‘kidlaydi. «Lekin kishilar hanuz haqiqiy mashrab kim ekanligini bilmaydilar, chunki Mashrab yashagan XVII asrdan beri o‘gan uzoq muddat ichida jamiyatdagi hokim tabaqalar Mashrabdan, uning shuhratidan, obro‘yidan o‘z maqsadlari uchun foydalanishga urinib keldilar, ular Mashrabni oddiy odam emas, balki avliyo qilib ko‘rsatganlar, uning nomidan foydalanganlar» [3], – deyilgan. «Devoni Mashrab» faqat Mashrabning o‘z asarlaridan iborat emas, unda Mashrabga nisbat berib aytilgan ko‘p so‘zlar va voqealar Mashrabdan keyin, xuddi Mashrabdek kayfiyatli kishilar tomonidan qo‘shilgandir. “Nechun biz hanuz ancha jihatdan xalq kayfiyatini aks ettirgan Mashrabdek katta shoirlarni yaxshi o‘rganmaymiz, ularning ijodini xalqqa tashviq etmaymiz, bu adabiyotimiz klassiklariga e‘tiborsiz qarashimiz natijasi emasmi?! [3]”, – deyilgan.

A. Abdug‘afurov Mashrab hayoti va faoliyati haqida fikr yuritib, shoirni saroy hayoti zarracha jalb etmaganligini, u xon va hokimlar, oliy tabaqa vakillari bilan «til topishga» intilmaganligini, aksincha ularga nisbatan ochiq munosabatini izhor qilishdan tap tortmasligini tahlil etib shunday yozadi: «Ayniqsa, firibgar, ikkiyuzlamachi ba‘zidin arboblari Mashrabning ayovsiz masxarasi ostida qoldilar; shoir o‘zining o‘tkir she‘rlari bilan ham, faoliyati, qilmishlari bilan ham ularni, shuningdek, dinning ayrim aqidalarini xalq oldida sharmandasini chiqara oldi, obro‘sini to‘ka berdi. Mashrab qilmagan ishlar, aralashmagan voqealar, aytmagan gaplar ham ba‘zida xuddi haqiqatdan bo‘lgandek, shoir tomonidan aytilgandek, unga nisbat berilib bayon etila boshlaydi» [4].

Akademik Vohid Abdullayev «O‘zbek adabiyoti tarixi» kitobida Boborahim Mashrab hayoti, faoliyati, shoir adabiy merosi haqida qimmatli fikr bildirib, shunday deydi: «Boborahim Mashrab o‘zbek adabiyotining XVII asrning ikkinchi

yarmi va XVIII asrlar boshlarida yashab, ijod etgan atoqli namoyandalaridan biri. Mashrab yashagan muhitining illatlarini tanqid qiluvchi isyonkor she'rlar yaratgan, samimiy sevgini tarannum qiluvchi xalqchil, jo'shqin va haroratli she'rlari bilan xalqqa manzur bo'lgan mashhur so'z san'atkoridir» [5].

V.Abdullayev fikricha, davr kirdikorlarini qattiq hajv qilgan, insof va adolat uchun kurashgan bu xalqchil shoir haqida juda ko'p hikoya va latifalar vujudga kelgan. Ularning ko'pchiligida Mashrab Nasriddin afandi kabi qo'rqmas, adolatparvar, dono va hozirjavob xalq qahramoni sifatida tasvir etiladi. bunga chiday olmagan yuqori toifa doiralar Mashrab asarlarining omma orasida tarqalib shuhrat qozonishiga qarshi kurash olib boradilar. Lekin buning iloji bo'lmagach, ijodiyotini soxtalashtirishga, uni xudo va payg'ambar yo'lida devonalik qilib yurgan tarkidunyochi shoir, badbin darvish – qalandar qilib ko'rsatishga urinadilar. Buning ustiga kotiblar va noshirlar Mashrab nomi (yoki taxallusi) bilan ijod etgan turli shoirlarning she'rlarini aralashtirib yuborganlar [5].

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti tomonidan «Jahon falsafasi tarixidan lavhalar» (2004) kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitobda shoir va faylasuf mutafakkirlar Yusuf Qorabog'iy, So'fi Ollohyor, Xo'janazar Huvaydo, Gulxaniy, Maxmur, Boborahim Mashrab hayoti va ijodi falsafiy tahlil etilgan. Jumladan, Mashrab falsafasi va qarashlari haqida shunday deyilgan: «Mashrab to'g'ri so'z, qat'iy fikrli, hech nimani yashirmasdan ochiq gapiradigan, adolat va haqiqat uchun kurashuvchi, e'tiqodi mustahkam odam bo'lgan. u butun umr haqiqat izladi, lekin haqsizlik, adolatsizlik, jabr-zulm, zo'ravonlik kabi illatlarga ko'p bora duch keldi. U Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan diniy-tasavvufiy oqimga e'tiqod qilib, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi qat'iy kurash olib borishga harakat qildi» [6].

Mashrab she'rlarida ilohiy ishq, ya'ni xudoga muhabbatini takrorlanmas satrlarda bayon qildi. buni majoziy shaklda, ya'ni, kapalakning shamga intilishi misolida ko'rsatib beradi. U panteistik so'fiylardan boyazid bistomiy, Mansur Halloj, Nasimiylarni she'rlarida tilga oladi, ular dunyoqarashini o'rganib, e'tiqod qiladi. Tasavvufning bu yirik vakillari zohid va shayxlarning din hamda shariatga to'g'ri kelmaydigan lo'tibozligi, ta'magirliqi, yolg'onchiligi, firibgarligini fosh qilganliklari uchun umr bo'yi ta'qib etildilar va pirovardida qatl qilindilar [6].

Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov Mashrab she'riyati haqida fikr yuritib, Mashrab ijodi tahlilini «Kamoli nuri rahmatman» nomi bilan atagan. Shoir she'riyatida xalq, muhabbat haqida juda ko'p istilohlar qo'llanganligini, lekin uni tadqiqotchilar o'z ma'nosidan yiroq tarzda tahlil etganligini, tasavvufiy ma'nosi o'ta chuqurligini, elkasida zaminiy dardni ko'argani holda podsholikni darvishlikka alishgan Ibrohim Adham yo'lini tanlaganini tahlil etgan: «Jahonni tark qildi Mashrab Ibrohim Adhamdek». Bu yagona yo'l bo'lib, «Tolibi ishq», ya'ni iloh vasliga talabgor odamning himmati – mardligidir, u shu orqali ruhi, sozi va so'zini, vijdonining erkini ta'minlashdan tashqari, sitam ahliga qarshi kurashish imkonini ham yaratadi [7]. Mashrab mulla Bozor Oxundning ruxsati bilan Xitoy Turkistoniga safar qilib, qashqardag'i Ofoq xo'jag'a murid bo'ladi. «Mashrab» taxallusini ham shundan oladi. Manqaba Mashrabning Ofoq xo'ja eshikida uch yil o'tun, uch yil suv tashib, yana bir

yil boshqa xizmatlar qilg'anini xabar beradir. Ofoq xo'ja qashqar xalqi ... va o'zi uchun juda katta davlat ta'min qilg'an edi» [8].

Fitrat «Mashrab» tadqiqotida shoir hayoti va faoliyatini yorituvchi asosli fikrlarni tahlil etib, ofoqxoja xonadonida ko'plab muridlar, hadya qilingan qullar, ichkarida cho'rilar bor edilar deb yozadi: «Mashrab mana shu cho'rilarning birta chiroylisi bilan shirin munosabat bog'laydi. Ancha vaqtdan keyin bu ishi Ofoq xo'jaga ma'lum bo'ldi. Mashrabni ura-ura eshikdan haydadi. Mashrab Qashqardan chiqib Yorkendga bordi. Unda Chig'atoy xonlaridan Abdullohxon bilan ko'rishdi, undan chiqib Xo'jandg'a bordi. Undan Ilaga, Qalmoqlar orasiga bordi. Qalmoqxonning qizini suyib, uning tuyaboqarlik xizmatiga kirdi. Undan yana Qashqarg'a qaytib, Ofoq xo'jaga tavba qilib, murid bo'ldi. Manqabag'a ko'ra, Mashrab Ofoq xo'janing amri bilan Toshkentga kelib, yana Qoshg'arg'a qaytg'an. so'ngra Ofoq xo'jadan «Irshod xati» olib, taxti Sulaymong'a, ondin Andijong'a borib, onasining xizmatig'a jo'nadi» [8]. Shu o'rinda ikki holatni tadqiqotchi mas'uliyati, burchi bilan aniqlashtirib ketishni o'rinli bilamiz. Fitrat nega Mashrabni Namanganga emas, Andijonga onasi xizmatiga jo'nadi, degan fikr bilan yakunladi. Xolisona aytish kerak, Mashrab Namangan shahrida tug'ilganligi inkor qilib bo'lmas hol. Namangan o'sha davrda kichik, mu'jaz shahar bo'lgan. Istisnosiz u Andijon tasarrufida bo'lgan. Andijon viloyat maqomidagi katta xalq bo'lgan. Lekin Fitrat «Mashrab» tadqiqotida manbalarga tayanib, Mashrabni Andijonda qashshoq oilada tug'ilgan degan noto'g'ri fikrni ilgari surgan. Ehtimol G'afur G'ulom va boshqa ba'zi olimlar ham shu fikrga tayanib, uni Andijonda tug'ilgan degan xulosaga kelishgan. Ikkinchi holat «Mashrabni ura-ura eshikdan haydalishi» masalasi. bu haqda samarqandlik sharqshunos va tarixchi olim Komilxon Kattayev shunday xulosani beradi: «Shoh Mashrab, Ofoqxo'janing dargohidan quvildi, degan fikrlarga kelsak; Mashrabdagi ilohiy sevgini ko'rib, uni o'zining ruhoniyligi tarbiyasiga olgan Ofoqxo'ja, rivoyatlarga qaraganda, Mashrab bir cho'ri qizga dunyoviy sevgini izhor etganini eshitib Mashrabdan ko'ngli sovigan bo'lishi mumkin. Chunki tasavvuf yo'liga kirganlar dunyoviy yo'ldan o'z xohishlaricha voz kechib, haq yo'lini, tariqat yo'lini olishlari kerak bo'lib, faqatgina xalqqa va dinga xizmat qilishni o'z burchlari deb bilishgan, ehtimol, dargohidan quvildi, degan iborani «irshod berish huquqidan mahrum etildi», deb tushunilishi kerakdir?!» [9]

XULOSA

Boborahim Mashrabning ma'naviy merosi - bu nafaqat tasavvufiy va adabiy yodgorlik, balki insonning ruhiy va axloqiy rivojlanishi uchun yo'l-yo'riq beruvchi bebaho manbadir. Uning ijodi va manbalarini chuqur o'rganish, nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy kontekstda ham katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Фафур Гулом. Асарлар. Саккизинчи том. Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1976, 276-277-бет.
2. Абдуғафуров А. Ўзбек адабиёти тарихи. III том, «Фан», Тошкент, 1978, 236-бет.
3. Иззат Султон. Ҳаёт, адабиёт ва маҳорат. Иккинчи том, Фафур Гулом

номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. - Тошкент, 1972, 17, 22-бет.

4. Абдуғафуров А. Ўзбек адабиёти тарихи. III том, 237-бет.

5. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб, «Ўқитувчи», Тошкент, 1980, 140-бет.

6. Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. 1 китоб. - Тузувчи ва илмий муҳаррир Қ. Назаров. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, Тошкент, 2004, 408-бет.

7. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб, «Ўзбекистон», Тошкент, 1999, 133-бет.

8. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд, «Маънавият», Тошкент, 2000, 83-84-бет.

9. Комилхон Катаев. Маҳдуми Аъзам ва Даҳбед. «Сўғдиёна», Самарқанд, 1994, 56-бет.